SUMMARY. Karakalpak folk songs are a significant part of cultural heritage, reflecting the traditions, values, and lifestyle of the people. These songs instill positive qualities in the younger generation such as patriotism, humanism, diligence, respect for parents, and loyalty to national values. Thus, Karakalpak folk songs are important not only as works of art but also as effective tools for moral and cultural education.

FESTIVAL FENOMENI: MADANIY VA IJTIMOIY ASPEKTLARI

Sobir Madiyev – *o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Tayanch so‘zlar: musiqiy festivallar, madaniy meros, “Sharq taronalari”, “Ilhom-XX”, simfonik musiqa, janr, baxshi san’ati.

Ключевые слова: музыкальные фестивали, культурное наследие, «Шарк тароналари», «Илхом-XX», симфоническая музыка, жанр, бахши искусство.

Key words: musical festivals, cultural heritage, "Sharq Taronalari", "Ilhom-XX", symphonic music, genre, bakhshi art.

KIRISH. San’at qadimdan mavjud har bir millat madaniyatini yuksaltiruvchi beqiyos manbaa bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Ko‘p davrlik taraqqiyoti davomida musiqa san’atining serqirra yo‘nalishlari, uslublari, janr va shakallari, ijod va ijrochilik borasida ko‘lamini keng va rang-barang, umumjahon va milliy qadriyatlari kamol topgan. Musiqa san’atini keng tinglovchilar doirasida targ‘ib qilish, insonlarning bilim va tafakkurini kengaytirish, badiiy didini shakllantirish, san’at olamida yaratilgan musiqiy namunalar orqali yuksak ma’naviy-ma’rifiy maqsadlarni amalga oshirish, har bir madaniyatning muhim maqsadini belgilaydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, aynan ma’rifatli va madaniyatli insonlargina jamiyatni olg‘a suruvchi va yuksak cho‘qqilarga ko‘tarishga qodir qudratli kuch hisoblanadi. Qadimdan bu vazifani “festival” nomi bilan o‘z ichiga olgan yirik hodislar amalga oshirgan.

Ma’lumki, dunyoda mavjud har bir festivalning tarixi, kelib chiqishining asosiy sabablari, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari bo‘lgan va ular ma’lum g‘oyalar asosida tashkil etilgan. Xozirgi kunga kelib jahon sahnalarida san’at va madaniyat sohasiga oid o‘zkazilayotgan turli festival va ko‘rik tanlovlar soni nihoyatda ko‘p. Maqola doirasida bizning e’tiborimiz asosan O‘zbekiston hududida o‘tkazilayotgan musiqiy festivaliga qaratildi.

Musiqa festivallari san’atning o‘ziga xos bayrami bo‘lib, mahoratli asarlar bellashuvi, sohaning yangiliklari, uslublar va tamoyillar bilan tanishish, tajriba almashish, o‘z faoliyatiga tashqaridan razm solish imkoniyatidir. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida butun dunyo san’at ustalarining ijodiy tajribalari bilan o‘rtoqlashish, qadim musiqiy an’analar davomiyligi, vorisiylikdagi o‘ziga xos o‘zgarishlar, yuzaga kelgan yangi musiqiy to‘lqinlar va eksperimentlarni jamoaviy tarzda baholash uchun festivallar nihoyatda zarur. Zero, har qanday mamlakat san’atkorlari o‘zi erishgan yutuqlar bilan qoniqmay, azaliy musiqa qadriyatlarini targ‘ib etishi, o‘zgarayotgan dunyo san’ati yangiliklari bilan muntazam ravishda tanishib borishi va shu tariqa ijodkorlik salohiyatini yanada kengaytirib bormog‘i muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida bu so‘zga alohida ta’rif beriladi. “Festival (lot. festivus – quvnoq) musiqa, teatr, kino, estrada, sirk san’ati yutuqlari ko‘rigidan iborat ommaviy bayram. Ilk bor 18-asr boshlarida Buyuk Britaniyada yuzaga kelgan. 20-asrdan xalqlararo keng tarqalgan. Milliy va xalqaro festivallar bo‘ladi”. [1.225.] Ushbu bayram musiqa, teatr, raqs, kino san’ati kabi qaysi doirada tashkillashtirilmasin, muayyan xususiyatlarga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi. Bular quyidagilardir:

shakliga ko‘ra - *tanlovli va tanlovsiz ;*

mazmunga ko‘ra - *muayyan yo‘nalishga asoslangan* yoki *aralash;*

qamroviga ko‘ra - *xalqaro, mintaqaviy, respublika doirasida.*

Agar tanlovli festivallarda hakamlar hay’ati tomonidan o‘rinlar, nominatsiyalar baholansa, tanlovsiz yo‘nalishda esa barcha qatnashchilar festivaldagi ishtiroki uchun diplom bilan taqdirlanadilar. Shuningdek, barcha yo‘nalishdagi festivallarda homiylar, jamoatchilik, turli tashkilotlar tomonidan ham mukofotlar belgilanadi.

Mazmuniga ko‘ra muayyan yo‘nalishdagi festivallar esa ma’lum musiqaning muayyan janri yoki yo‘nalishi asosida o‘tkaziladi. Masalan, respublikamizda o‘tkaziladigan “Sharq taronalari”, “Boysun bahori”

festivallari muayyan yo‘nalishli xarakter kasb etadi. Qamrov shakli deyilganda esa uning hududiy doirasi tushuniladi. Odatda geografik qamrov shakliga ko‘ra respublika va mintaqa doirasida o‘tkaziladigan festivallar eng nufuzli bo‘lgan xalqaro festivallar uchun nomzodlar tanlanishiga zamin bo‘ladi. Festivallar shunday shakllandiki, diyorimizda muntazam ravishda o‘tkazilgan festivallar soni, musiqiy tanlovlar soniga nisbatan bir muncha ko‘p bo‘lib, ularning ayrimlari tarixda qolgan bo‘lsa, ayrimlari bugungacha o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

MUNOZARA. Diyorimizda mavjud musiqiy festivallar o‘z sanasini XX asrdan boshlashiga qaramay haqiqiy “Festival” maqomining berilishi Mustaqilligimizdan so‘ng yuz berdi. Festivallarda ishtirok etish qatnashuvchilarning professional mahoratni yanada oshirish va rivojlantirish bilan birga, o‘zaro mahorat almashishi hamda birdamlikka, yakdillikka chorlaydi. Zero, musiqa sadolari inson ruhiyatidagi poklik, ezgulik, shijoat kabi hislarni uyg‘otadi, tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Aynan shu kabi maqsadlarni o‘zida mujassamlashtirgan festivallar mamlakatitmizda kundan kun ravnaq topib, musiqa ijrochiligining turli yo‘nalishlarini qamrab olgan holda rivoj topmoqda. Bugungi kunda yurtimizda ularning Respublika va Xalqaro miqyosida o‘tkazilishini kuzatishimiz mumkin.

Bunga misol sifatida milliy musiqiy meros na’munalarini o‘zida mujassam etgan “Sharq taronalarini” festivalini ko‘rsatish mumkin. Ushbu festival mustaqillikdan keyingi milliy musiqa merosning bardavomiylik mezoniga asoslangan festivallardan biri bo‘lib, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlar uyushmasi hamkorligida 1997-yil tashkil etilgan Xalqaro musiqa festivaliga aylandi. “Sharq taronalari” festivali dunyodagi turli xalqlar milliy musiqalarining targ‘iboti va namoyishiga asoslangan.

Sharq taronalari - 1997-yildan buyon har ikki yilda bir marta o'tkaziluvchi xalqaro musiqa festivali. Festival har ikki yilda bir marta Samarqand shaxrining Registon maydonida bo'lib o'tadi. Festivalda turli mamlakat va millat vakillaridan bo'lgan ovoz san'atkorlari ishtirok etadi. [2.] Ko‘hna va navqiron Samarqand shahrining Registon maydonida o‘tkazilib kelinmoqda. “Sharq taronalari” musiqa festivali shu kunga qadar o‘zining betakror ruhi va qiyofasi, xalqlar o‘rtasida do‘stlik rishtalarini mustahkamlash, musiqa san’ati an’analarini asrash, madaniy muloqotni rivojlantirish borasidagi ezgu maqsad-muddaolari bilan qisqa muddatda yuksak darajaga erishdi deyish mumkin. Har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan ushbu festival o‘zining professional ijodkor va san’at ahli, tinglovchilari orasida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega. Xalqaro festivalning bu darajada ommalashishi albatta mezbon davlatning zimmasiga yetarlicha tayyorgarik va katta ma’suliyat yuklaydi.

“Sharq taronalari” festivali bugungi kunda YUNESKO tomonidan musiqa olamining yirik xalqaro forumi sifatida e’tirof etilgani va bu ibora dunyo bo‘ylab baralla yangrayotgani, hech shubhasiz, uning nufuzi va ahamiyati tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Bunga misol O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2000-yil 14-martidagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi faxriy unvoni belgilash to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilinidi. Uning mantiqiy davomi sifatida qadimiy Temez shahrida yurtimizda ilk marotaba xalqaro baxshilik san’ati festivali o’tkazilib, YUNESKO, AYSESKO singari xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda katta bayram o‘tkazildi. Bu davlat ahamiyatiga ega tadbirda jahonning 74 ta davlatidan 160 dan ziyod vakillir qatnashdilar. Festival doirasida “Jahon sivilizatsiyasida baxshichilik an’anasining o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman ham o‘tkazilib, unda jahonning turli mamlakatlaridan, xalq og‘zaki ijodi, xususan baxshi oqin va jirovlar, oshiq va ozanlar san’ati bilan shug‘ullanuvchi olimlar ishtirok etdilar.

Bu borada nafaqat mamlakat nufuzi, dovrug‘i, hurmati va targ‘ibori balki, shu tadbirdagi yuksak “Xalqaro baxshichilik san’ati” iste’dodlarni kashf etilishi, jahon sahnalaraida o‘z iste’dodlarini tarannum etishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Xalqaro baxshichilik san’ati festivali – 2019-yildan boshlab har ikki yilda bir marta O‘zbekistonda o‘tkaziladigan festival. 2018-yil noyabr oyida O‘zbekiston Prezidentining Surxondaryoga tashrifi chog‘ida uning taklifi bilan ushbu festivalni an’anaviy o‘tkazish rejalashtirilgan. Festivaldan ko‘zda tutilgan maqsad sharq xalqlari folklor san’atining yetakchi janrlaridan biri bo‘lgan baxshichilikni keng targ‘ib qilish, folklor an’analari va qadriyatlarini rivojlantirish va uni chuqurroq o‘rganishga qaratilgan. Baxshichilik va dostonchilik tarixi, ularning ijodini mukammal o‘rganish, xalq og‘zaki ijodiga oid asarlarni to‘plash, baxshi-shoir, oqin va jirovlar ijodining sharq madaniyati va san’atidagi o‘rni hamda ahamiyatini yanada oshirishdan iborat”. [3.] Bu borada musiqiy festivalidan ko‘zlangan asosiy maqsad milliy musiqa san’atining eng yaxshi namunalarini asrab-avaylash, saqlab qolish va keng miqyosda targ‘ib qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy musiqa an’analariga bo‘lgan mehr-

muhabatni shakllantirish, xalqaro ijodiy aloqalarni yanada mustahkamlash kabi bir qancha masalalar yotadi.

Ko‘pincha, festivallar tashkil qilinish makoni tadbir mazmuni bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda festivallarning muvaffaqiyati bir tomondan o‘tkazilish uchun mo‘ljallangan joy va makoning tanlanishiga bevosita bog‘liq. Manbalarda qayd etilishicha, G‘arb va Sharq o‘rtasidagi savdo-sotiq, madaniy aloqalar aynan Samarqand orqali amalga oshirilgan. Bu shahar ana shu ikki qit’ani bog‘lagan va Buyuk ipak yo‘lining markazi hisoblangan. Boysun zamini esa yer yuzida paydo bo‘lgan ilk shaharlardan biri hisoblanib, insoniyat madaniyati ko‘z ochgan beshik sanaladi. Bu ma’noda “Sharq taronalari” uchun Samarqand, “Boysun bahori” uchun Boysun tanlanishi ham milliy musiqaning ko‘hna va ayni damda hamisha navqironligi belgisidir. Ko‘hna zamin charpalagi aylanib borar ekan, ne-ne avlodlar almashadi, insoniyat hayoti davom etadi va u bilan birgalikda milliy qadriyatlar abadiylik kasb etadi. Milliy musiqa ana shu qadriyatlarning eng muhim va zalvorli qismidir.

Shu o‘rinda aytish kerakki, Qo‘qon shahrida ilk bor hunarmandchilik festivalini o‘tkazilishi bejiz bo‘lmagan. “Mazkur nufuzli anjuman xalqimizning qadimiy tarixi va madaniy hayotini har tomonlama keng yoritish, nomoddiy madaniy merosimiz bo‘lgan ko‘p qirrali o‘zbek milliy hunarmandchiligini keng namoyish qilish, uning noyob namunalarini targ‘ib etish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda o‘zaro tajriba almashish orqali turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir”. [4.] 2019-yil 10-15-sentabr kunlari Xudoyorxon O‘rdasi atrofidagi bog‘ hududida Sharq va G‘arbni tutashtirgan Buyuk Ipak yo‘lini ochib bergan, barcha xalqlarni bozor iqtisodiyotida azaldan muhim hisoblangan hunarmandchilikni keng targ‘ib qilish, hunarmandchilik an’analari va maktablarini saqlash, qayta tiklash, bu sohadagi ilmiy o‘rganish va izlanishlarni hamkorlikda amalga oshirish, o‘zaro tajriba almashish va mahorat darslari tashkil etish, ushbu sohadagi iqtidorli hunarmandlarni rag‘batlantirish, hunarmandchilik tarixi, maktabi va uslublari hamda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rnini mukammal o‘rganish, qadimiy hunarmandchilik va amaliy san’atga oid qo‘lyozma va sir-asrorlarni to‘plash, yosh avlod qalbida hunarmandchilik san’atiga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish, hunarmandchilik yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish, hunarmandchilikning sharq va g‘arb madaniyati, iqtisodiyotidagi o‘rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, o‘zbek xalqi hamda boshqa xalqlarning hunarmandchilik an’analarini qamrab olish, ular bilan ilmiy, ijodiy muloqotlar o‘tkazish va hamkorlik qilish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu festivalni tashkillashtirish nafaqat yuqoridagilar borasida, balki moliyaviy tomondan ham bir qancha ustunlikka ega. Shuni aytib o‘tish o‘rinliki, festival doirasida bir qancha tadbirlar tashkillashtirildi:

- mahalliy va xorijiy hunarmandlarning mahsulotlari ko‘rgazma savdosi;
- usta hunarmandlar tamonidan mahorat darslari va treninglar;
- xalqaro hunarmandchilik bo‘yicha muzey ochilishi;
- 20 ta shahar merlari ishtirokida “Hunarmand shaharlar” forumi;
- festivalda ilmiy-amaliy konferensiyalar;
- festivalda taniqli estrada yulduzlari ishtirokida konsertlar va tomoshalar;
- xorijlik va O‘zbekistonlik hunarmandlar ishtirokida “Kokand fashion” haftaligi;
- mahalliy oshpazlar o‘rtasida osh pishirish bo‘yicha bellashuvlar;
- kulolchilik va hunarmandchilikka oid kitoblar taqdimoti shular jumlasidandir.

Ko‘rinib turibdiki, birgina festival doirasda bir qancha ma’daniy-marifiy ishlar amalga oshirilishi jahon miqyosida O‘zbekistonning milliy madaniyatini tarannum etilishiga, amaliy san’at namunalarining o‘ziga xos beqiyosligiga, milliy musiqasi san’atimizdan xorijlik tashrif buyuruvchiari bahramand bo‘lishiga sababchi bo‘lmoqda. Bu kabi tadbirlar o‘z o‘rnida millatimizning jahon miqyosidagi yuksak o‘rni, mavqeyi va darajasini belgilab bermoqda. Jahon san’ati an’analari targ‘ib qilish borasida kompozitorlik ijodiyotining yutuqlari namoyish etuvchi festivallar ham e’tiborga molik. Milliy qadriyatlar bilan bir vaqtda zamonga hamnafas tarzda ijod qilib, katta yutularni qo‘lga kiritayotgan san’atkorlar ijodi bilan tanishish maqsadini ko‘zlagan shunday talbirlar madaniyat rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

1995-yilda diyorimizda vujudga kelgan, zamonaviy musiqaning ijrosiga bag‘ishlangan “Ilhom XX” festivali intizorlik bilan kutib olindi. Ilk nihol o‘rnida mazkur festival yurtimiz musiqa ixlosmandlarini yangi kompozitrlik uslub va texnik yozuvda, shakl va janrlarda yaratilgan musiqa namunalari bilan yaqindan tanishish, jahonning mohir ijrochilari talqinida ushbu namunalarni jonli ravishda tinglash imkoniyatini berdi. [5.] O‘z vaqtida mazkur Xalqaro festival O‘zbekiston va Jahonda tanilgan kompozitor Dmitriy Yanov-Yanovskiy tashabbusi bilan amalga oshirilgan edi. Birinchi kundan boshlab

ushbu Toshkent musiqiy forumi atrofida mazkur g‘oyaga ko‘mak beruvchi ijodkorlar to‘planib har bir o‘tkazilgan festival misolida uning safi kengayib bordi. Diyorimizda o‘tkazilgan mazkur festivalga tashkilotchilar dunyoga mashhur va tanilgan musiqa- ijrochilar, sozandalar, kompozitorlar, taniqli xonanda va ansambllarni taklif qilganlar. Aynan festival doirasida o‘zbek ijodkolari va san’atkorlari ham o‘z san’atlarini namoyish qilishga imkon yaratildi.

XULOSA. O‘zbekistonlik san’atkorlar chet eldan tashrif buyurgan ijodkorlar bilan hamkorlikda ko‘plab ijodiy konsertlar va dasturlarda ishtirok etishdi. Bu borada ko‘plab o‘zbek kompozitorlar tomonidan aynan mazkur festivalning dasturi uchun yangi asarlar yaratildi. O‘z navbatida “Ilhom-XX” festivali – premeralar bayramiga aylandi. 10-12 kun davomida o‘tkaziladigan festival kunlarida konsert dasturlarida butun yil davomida ijro qilingan asarlardan son jihatdan ko‘proq musiqiy namunalar tinglovchilarga taqdim etildi. Tamoshabinlar zallarni to‘ldirib kelishi ham ushbu bayramona kayfiyatni yanada ko‘tarinki ruhda o‘kazilishi uchun zamin yaratdi. Eng muhimi “Ilhom-XX” – bugungi kunga qadar ilk bor o‘tkazilgan va zamonaviy musiqa san’atiga bag‘ishlangan katta va yirik madaniy hodisalardan biriga aylandi. Tabiiyki, mazkur festival O‘zbekistonga yangi musiqiy axborotni kiritish bilan birga O‘zbekiston havaskor va professional tinglovchilarini yangi musiqiy namunalari bilan tanishtirishga zamin yaratib berdi. Boshqa tomondan festival XX-XXI asr bo‘sag‘asida paydo bo‘lishi ma’lum ma’noda umulashtiruvchi yakuniy hisobot, xulosaviy ahamiyatga ega bo‘ldi. Avval tarqoq va bo‘shliqlarga to‘la zamonaviy musiqa, endigina yaxlit va bir-birini to‘ldiruvchi musiqiy tizim sifatida tinglovchilar ko‘z oldida gavdalandi.

Bastakorlar uyushmasining raisi – kompozitor, professor R.Abdullayev yangi bosqichda “Xalqaro Simfonik musiqa festivali”ni tashkil etish g‘oyasi “Sharq taronalari” festivalining o‘tkazilish jarayonida tug‘ilganligini takidlaydilar: “O‘zbekistonda yetuk kompozitorlik maktabi mavjud. A.Kozlovskiy, V.Uspenskiy, T.Jalilov, I.Akbarov kabi mohir kompozitorlarimiz, K.Jabborov, Y.Rajabiy singari bastakorlarimiz bor. Bu kabi ustozlar maktabida ta’lim olgan ijodkor kompozitorlarning musiqa dunyosidagi yaratilgan, bir qator murakkab janrlarda ijod mahsullari – baletlar, operalar, simfonik asarlari mavjud. Yurtimizda ajoyib festivallar tashkil etilgan bo‘lsa-da, ular orasida Simfonik festival yetishmayotganligi ma’lum bo‘ldi”.[6.B.5.]. Festival o‘tkazilishidan bosh maqsad yetuk va zabardast o‘zbekistonlik kompozitorlar bilan bir qatorda yosh navqiron ijodkor avlodni kompozitorlik sohasida bugungi kunda erishilgan yutuqlarini namoyish etish, dastlabki qadamlari qo‘yib kelayotgan shuningdek, nihol bo‘lib hozirda o‘z ijodiy mevalarini berishga ulgurgan ijodkorlarning asarlarini festival repertuarlariga kiritilishi va ijro etilishiga qaratilgan. Festival doirasida yosh ijodkorlar o‘z asarlarini orkestr ijrosida tinglash fursatini qo‘lga kiritadi.

Yuqori saviyada tashkil etilgan festivallarda turli yillarda O‘zbekiston Davlat kapellasi, O‘zbekiston Davlat teleradiosining xori, Alisher Navoiy nomidagi akademik opera va balet drama teatrining xori va shu kabi professional jamoalar o‘z repertuarlari bilan qatnashdilar. Kutilganidan yuqori natijalarni bergan festivalni doimiy ravishda o‘tkazish rejalashtirildi. Bu albatta tinglovchi va festival qatnashchilari uchun katta yutuqdir. Yildan yilga festivalning maqomi oshib, ijodkorlar auditoriyasi kengayib bordi. Jumladan 1985 yili Yerevandan “Zartonk” havaskorlar xori, 1986-yili Y.Vitol nomidagi Latviya davlat konservatoriyasining talabalar xori (rahbar Y.Zirnis) ishtirok etadi. Φestivalning maqsadi – xor san’atiga, uning qadimiy ma’naviy mazmuniga qaytishdir. Albatta bu yerda ko‘proq professional tinglovchilarni jalb etadi. Tinglovchilarni nafaqat O‘zbekiston, shuningdek uzoq va yaqin xorij mamlakatlari kompozitorlarining yetuk asar mahsullari bilan tanishtirish – festivalning asosiy va muhim vazifalaridan biriga aylandi. Zero, “...festivallar ham mamlakatimizdagi xor madaniyatining holati va professional xor ta’limining rivoji xususidagi o‘ziga xos hisobotdir” deya ta’kidlaydi xorshunos B.Shaxnazarova. [7.B.39.]

Maqola doirasida biz mamlakatimizda o‘tkazib kelinayotgan faqat yirik festivallar doirasida to‘xtaldik. Bu ro‘yxat ancha keng va har yili yangilari bilan to‘ldirilib kelinmoqda. Xulosa, o‘rnida aytish lozimki, bugunda mamlakamiz va jahonda o‘tkazilayotgan festivallarni ilman o‘rganish asnosida turli madaniyat va san’at sohalarining rivojlanish yo‘lidagi istiqbolli yo‘llarini belgilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.9. -T.: O‘zME, 2005.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharq_taronalari
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_baxshichilik_san%CA%BCati_festivali

4. https://old.gov.uz/oz/news/view/24061
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Musiqa_tanlovlari_va_festivallari
6. Amonov.D.“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, BMI. -T.: 2006.
7. Shaxnazarova B. Talabalar kuylaydi. -T.: Mumtoz so‘z, 2012.

REZYUME. Ushbu maqolada festivallarni asrlar davomida turli xalqlar, madaniyatlar va jamoalarning o‘ziga xosligi, an’analari va qadriyatlarini ifodalovchi muhim madaniy hodisani tashkil etgani o‘rganiladi. Festivallarning turfa ko‘rinishlari: musiqa, teatr, tasviriy va amaliy san’at, milliy taomlar kabi turli ko‘rinishlari mazkur hodisaning madaniy aspektini ifodalashi ochib beriladi. Bugungi kunda festivallar, shuningdek, dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni yechishda muhim platformalariga aylanib, madaniy fenomen sifatidagi rolini alohida belgilangani ko‘rsatib, ijtimoiy va madaniy jihatlarni birlashtiruvchi ko‘p qirrali hodisa sifatida O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” va “Ilhom-XX” kabi yetakchi musiqiy festivallari tahlil qilinib, jamiyat taraqqiyoti va uning o‘ziga xosligini saqlashda tutgan o‘rni ochib beriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются фестивали как важное культурное явление, которое на протяжении веков выражало уникальность, традиции и ценности различных народов, культур и сообществ. Разнообразные формы фестивалей — такие как музыка, театр, изобразительное и прикладное искусство, национальная кухня — раскрывают культурные аспекты этого явления. Сегодня фестивали стали важными платформами для решения актуальных социальных и экономических вопросов, укрепляя свою роль как культурного феномена и оказывая влияние на общественные изменения. В статье проводится анализ ведущих музыкальных фестивалей, проводимых в Узбекистане, таких как «Шарк тароналари» и «Илхом-ХХ», и рассматривается их роль в сохранении уникальности общества и его развитии. Кроме того, фестивали играют важную роль в содействии международному культурному диалогу, представлении различных жанров искусства широкой аудитории и сохранении культурного наследия.

SUMMARY. This article explores festivals as an important cultural phenomenon that has expressed the uniqueness, traditions, and values of different peoples, cultures, and communities over the centuries. Various forms of festivals—such as music, theater, visual and applied arts, and national cuisine—highlight the cultural aspects of this phenomenon. Today, festivals have become important platforms for addressing pressing social and economic issues, strengthening their role as a cultural phenomenon, and influencing societal change. The article analyzes leading musical festivals held in Uzbekistan, such as “Sharq taronalari” and “Ilhom-XX” and examines their role in preserving the uniqueness of society and contributing to its development. Additionally, festivals are essential in fostering international cultural dialogue, presenting various art genres to the public, and preserving cultural heritage.

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҚ БАХШИЧИЛИК САНЪАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ
(Каримбай Тинибаев ва Турғанбай Қурбановлар мисолида)

Махамматдинова Лола Махамматдиновна – *доцент*
ЎзДСМИ Нукус филиали

Таянч сўзлар: бахши ҳаёти, халқ мусиқаси, чолғу асбоби, бахшилар, достонлар, дутор, қўшиқ, санъат, бадиий асар.

Ключевые слова: народные музыка, стунные инструменты, бакси, легенди, дутар, песня, искуства, художественое произведения.

Key words: folk music, string instrument, narrator, legend, dutar (stringed musical instrument with two strings) song, art, work of art.

Мамлакатимизда баркамол авлодни шакллантириш, ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларни олиб борилаётган ислоҳотларнинг фаол иштирокчисига айлантиришга қаратилган чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда.[1]

Айни вақтда миллий ўзлигимизни англаш, маданиятимизни ҳар томонлама ривожлантириш, халқимиз, аввало, ёш авлодимизни юксак инсоний туйғулар руҳида тарбиялаш, унинг эстетик диди ва тафаккурини шакллантиришда мақом